

**ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA PROFILAKTIK ISHLARNI TASHKIL ETISHDA  
PSIXOLOGIK BILIMLARDAN FOYDALANISHNING IJTIMOYIY-HUQUQIY ZARURATI  
HAMDA AMALIY IFODASI**

**A'loxonov Muxammadmirzoxon Adxamxon o'g'li  
Xasanova Iroda Abduhalil qizi**

**Annotatsiya:** *Maqolada ichki ishlar organlarining jinoyatchilikka qarshi murosasiz kurashish va huquqbuzarliklarni samarali oldini olish faoliyatida an'anaviy hamda zamonaviy psixologik bilimlardan foydalanishning zarurati ilmiy jihatdan asoslanadi, bu boradagi ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinadi, shuningdek, psixologik bilimlardan milliy qonunchiligimizda qo'llash yo'nalishlari yuzasidan ilmiy xulosa qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *psixologiya, huquq psixologiyasi, psixologik bilimlar, profilaktik ishlarni tashkil etishda qo'llaniladigan psixologik bilimlar, ijtimoiy-psixologik chora-tadbirlar, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarni oldini olish, psixokriminologlar.*

**СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И ПРАКТИЧЕСКОЕ  
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ В ОРГАНИЗАЦИИ  
ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЙ РАБОТЫ В ОРГАНАХ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ**

**Аннотация:** *В статье научно обоснована необходимость использования традиционных и современных психологических знаний в деятельности органов внутренних дел по борьбе с преступностью и эффективному предупреждению преступлений, проанализирован опыт передовых зарубежных стран в этом отношении, а также применение психологических знаний в нашем национальном законодательстве. Сделан научный вывод по направлениям.*

**Ключевые слова:** *психология, психология права, психологические знания, психологические знания, используемые в организации профилактической работы, социально-психологические мероприятия, борьба с преступностью, профилактика правонарушений, психологи-криминалисты.*

**SOCIAL-LEGAL NEED AND PRACTICAL IMPRESSION OF USING  
PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE IN THE ORGANIZATION OF PREVENTIVE WORK IN  
INTERNAL AFFAIRS BODIES**

**Annotation:** *In the article, the need to use traditional and modern psychological knowledge in the activities of the internal affairs bodies to fight against crime and effectively prevent crimes is scientifically based, the experience of advanced foreign*

*countries in this regard is analyzed, as well as the directions of applying psychological knowledge in our national legislation. a scientific conclusion is made.*

**Key words:** *psychology, law psychology, psychological knowledge, psychological knowledge used in the organization of preventive work, socio-psychological measures, crime fighting, crime prevention, psycho-criminologists.*

Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan ko'zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo'yicha respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratilgan bo'lib, unda ichki ishlar organlari muhim o'rin egallaydi.

O'tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo'g'inini rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar qilindi.<sup>172</sup>

Xususan, jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning **yaxlit tizimini shakllantirish**, ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidan respublika darajasigacha **samarali faoliyatini yo'lga qo'yish** va **zamonaviy ish uslublarini joriy etish** orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash maqsadida ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etishning **samaradorlik jihatdan istiqbolli mexanizmlari** belgilandi.

Unga ko'ra, har bir mahalla, oila va shaxs kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid muammolarni **bevosita joylarning o'zida hal etish**, hududlarda jinoyatchilik ahvolidan kelib chiqib, har bir tuman, shahar va mahallalarni toifalarga ajratish hamda hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilan hamkorlikda **"jinoyat o'choqlari"ni bartaraf etish** uchun barcha zarur kuch va vositalarni jalb qilish, **"respublika — viloyat — tuman — mahalla" tizimi** asosida yaxlit boshqaruv va uzluksiz nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish, ichki ishlar va boshqa davlat organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi faoliyatini samarali muvofiqlashtirish orqali mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, ichki ishlar organlari xodimlarining **zamonaviy qiyofasini yaratish**,

<sup>172</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5005-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/-3159827>

ularning mas'uliyati va kasbiy salohiyatini oshirish, jinoyatchilikning yangi ko'rinishlariga qarshi kurashish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish hamda sohani to'liq raqamlashtirishga erishishga yo'naltirilgan maqsadli mexanizmlarni joriy etilishi soha faoliyatida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi islohotlarning ijobiy natijalarini ifoda etadi.<sup>173</sup>

Ichki ishlar organlarida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan maqsadli profilaktik ishlarni samarali tashkil etish borasida har bir huquqbuzarlik va jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash, huquqbuzarlik va jinoyatlarning sodir etilishiga sabab bo'lgan (ta'sir ko'rsatgan) **ijtimoiy-psixologik holatlar**, shuningdek, huquqbuzarlik sodir etilishiga imkon bergan (shart-sharoit yaratgan) *iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy, tibbiy, etnik, demografik, geografik, ekologik va tashkiliy holatlarni ilmiy diagnoz asosida tahlil qilish*, ushbu omillarni ilmiy tahlil qilish asosida bataraf etish qaratilgan **tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirilishi** alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda profilaktik ishlarni tashkil etishda har bir shaxslar, jumladan muqaddam huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar bilan *ijtimoiy-psixologik chora-tadbirlarni* amalga oshirish va psixologik bilimlardan samarali foydalanishni muntazam yo'lga qo'yish **hozirgi davrning o'zi talab qilmoqda** va **ijtimoiy-huquqiy jihatdan** hamda **obyektiv voqealik nuqtayi nazaridan bu zaruriy shartlardan biridir**. Bu o'rinda ijtimoiy-psixologik chora-tadbirlar, psixologiya va psixologik bilimlar tushunchalarini bilib olish zarur hisoblanadi.

**Psixologiya** so'zi – yunoncha “psixo” ruh, jon, aql va lotincha “logos” ta'limot, fan tushunchalaridan tarkib topgan bo'lib, umumiy asosda ruh haqidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi. **Psixologiya** deganda — inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, xislatlarni o'rganish tushuniladi.<sup>174</sup>

**Profilaktik ishlarni tashkil etishda qo'llaniladigan psixologik bilimlar deganda** – bevosita huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi subyekt tomonidan huquqbuzarliklarni samarali oldini olinishida g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan, muqaddam huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan shaxslar bilan individual yoki jamoaviy shaklda ishlash, buning natijasida esa ularga ruhiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ijobiy ta'sir o'tkazishga qaratilgan an'anaviy, zamonaviy psixologik metodlar va tajribalar majmuyi tushuniladi.<sup>175</sup>

**Ijtimoiy-psixologik chora-tadbirlar** deganda – insonlarning shaxsini, ruhiy holatini, xulq-atvorini, karakteri, temperamentini, obyektiv borliqqa bo'lgan

<sup>173</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6196-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5344118>

<sup>174</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Psixologiya>

<sup>175</sup> \*Hammualiflik ta'rifi

munosabatini, jamiyat a'zolari bilan o'zaro mulqotini o'rganish, tahlil qilish, baholash va yakuniy xulosa chiqarish asosida o'rganishga qaratilgan manzilli xatti-harakatlar tushuniladi.<sup>176</sup>

Ushbu tushunchalar qatoriga dunyo hamjamiyatida tobora rivojlanib borayotgan huquqiy psixologiyani kiritish joizdir. **Huquqiy psixologiya** - huquqiy o'rganish usulining hali yosh bo'lgan, u yuridik fanlarda, ayniqsa huquqni qo'llash amaliyotiga bo'lgan ehtiyoj va talab tufayli, shuningdek, ishni sudga qadar yuritishda qo'llaniladigan, qonunni qo'llashga amaliy yordam beradigan psixo-huquqiy masalalar, jinoiy-huquqiy masalalar (*The Committe On Etnical Guidelines For Sud Psychology*) yuzasidan zaruriy tavsiyalar berishga, jinoyat protssesi ishtirokchilarini ko'rsatmalari, sudyalarga sud qarorlarini qilishga ko'maklashadigan hamda kriminologik jihatdan huquqbuzarlik sabablarini, profilaktik davolash choralarini ishlab chiqish bo'yicha amalga oshiriladigan kompleks yuridik chora-tadbirlar, xulq-atvor qoidalari majmuyidir.<sup>177</sup>

Mamlakatimiz ichki ishlar organlari tizimida huquqbuzarliklarga qarshi murossasiz kurashish va profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda psixologik bilimlardan foydalanish mobaynida ushbu qo'llaniladigan tizmining xalqaro maydonlardagi ijtimoiy hayotda qo'llanilish amaliyotini tahlil qilish lozimdir.

*Xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasiga ko'ra*, xususan **Buyuk Britaniyada** huquqbuzarliklarning oldini olishda ishlaydigan *psixolog-mutaxassislar* ko'pincha klinik tajriba yoki boshqa amaliyot ishlari orqali sud-tergov faoliyati bo'yicha zarur tajribaga ega hisoblanadilar. Ular ko'pincha *professional uchta asosiy sud* tuzilmalaridan birida ixtisoslashgan holda faoliyat yuritadilar: oilaviy sud, fuqarolik sudi hamda jinoiy ishlar bo'yicha sudlar. Oilaviy sud sharoitida psixolog vasiylik, ajralish yoki zo'ravonlik kabi davom etayotgan muammolarni hal qilishda qiynalayotgan bolalar yoki oilalar bilan profilaktik faoliyat bo'yicha ishlaydi. Fuqarolik sudida ish asosan aqliy qobiliyatga, boshqa bironing tanlovi natijasida yetkazilgan ruhiy zararni baholashga va ekspert xulosalarini berishga qaratilgan vazifalarni amalga oshiradi. Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda psixologlar asosan jabrlanuvchilar bilan ishlaydi, bolalarni guvohlik berishga tayyorlaydilar, shuningdek sudlanuvchilarning aqliy-ruhiy qobiliyatlarini baholashlar kabi chora-tadbirlarni amalga oshiradilar.

Shuningdek, **Angliyada** huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish jamoat tashabbusini talab qiladi, shuning uchun psixologlar mijozlar va ularning xatti-harakatlarini o'zgartirish bevosita bog'liq bo'lgan ularning oilalari bilan yakkama-yakka uchrashishi amaliyoti mavjud. Shuningdek ushbu tajriba ko'pincha katta tashabbuslarda ham faoldir. Huquqbuzarlik sodir etilishida rol o'ynaydigan ijtimoiy-iqtisodiy, gender, etnik va boshqa madaniy omillarni chuqurroq anglagan holda,

<sup>176</sup> \*Hammualiflik ta'rifi

<sup>177</sup> <https://uz.warbletoncouncil.org/psicologia-juridica-derecho-2766>

psixolog o'z tadqiqoti bilan shug'ullanib, munozaralar va jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan dasturlar va xizmatlarni ishlab chiqishga kengroq ahamiyat qaratadi.<sup>178</sup>

**Amerika Qo'shma Shtatlarida** intizomiy muammolarga duch kelgan va huquqbuzarlik sodir etgan o'smirlar va yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam berishga qaratilgan bir nechta dasturlar mavjud. Ushbu dasturlarga **Scared Straight, Boot Camps** va **reabilitatsiya** kiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, takroriy jinoyatlarning oldini olishning eng samarali usullari bu kognitiv xatti-harakatlar terapiyasi (CBT) yoki dasturlarning davomiyligidan keyin yashashni davom ettirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'rgatadigan reabilitatsiya dasturlari hisoblanishi ma'lum bo'ldi. Huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga yordam berish **quyidagi bir necha ijtimoiy-psixologik usullardan foydalaniladi:**

- ✚ Intensiv multimodal kognitiv terapiya
- ✚ G'azabni boshqarish
- ✚ Motivatsion intervyu
- ✚ Dialektik xulq-atvor terapiyasi
- ✚ Sxema modali terapiya
- ✚ Funktsional oilaviy terapiya
- ✚ Guruhga asoslangan kognitiv xulq-atvor terapiyasi
- ✚ Mentorlik dasturlari
- ✚ Ko'p o'lchovli oilaviy terapiya.

Ushbu usullardan foydalangan holda ayrim toifadagi huquqbuzar shaxslarning ruhiy holati va huquqbuzarlik sodir etishiga imkon bergan sabablari aniqlanadi hamda ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqishni ko'zda tutadi.<sup>179</sup>

**Fransiya Milliy Jandarmeriyasi** faoliyatida ham huquqbuzarliklarni oldini olishda psixologik bilimlardan keng foydalaniladi. Buning yorqin ifodasi sifatida ularda bevosita asosiy faoliyati huquqbuzarliklarni sabab va shart-sharoitlarini aniqlashga ixtisoslashgan **psixo-kriminologlar** faoliyati yo'lga qo'yilgan. Psixo-kriminologlar jinoiy xatti-harakatlarga qiziqishni va odamlarning motivlarini tushunishni, qonunni hurmat qilish va fuqarolik tartibini saqlashni talab qiladi. Shuning uchun ular jinoyatchilik darajasini kamaytirishga yordam berish uchun inson xatti-harakatining noyob tushunchasini qo'llagan holda "adliya sohasining psixologlari" sifatida e'tirof etiladi. Mamlakatda kriminologiya va psixologiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda faoliyat olib boradi, chunki har ikkalasi ham inson xatti-harakatlarini tushunishga tayanadi. Psixologlar ma'lumotni qayta ishlash va qaror qabul qilish usullari travma, biologik kasalliklar, o'zgaruvchan muhit va turmush tarzini tanlash kabi omillarga qanday ta'sir qilishini tushunishga ixtisoslashgan bo'lsa, psixo-kriminologlar qanday ijtimoiy, ekologik va biologik kuchlar jinoyatchilarga o'z qarorlarini qabul qilishlariga ta'sir qilishini tushunishga intiladi. Ikkala kasb ham

<sup>178</sup> <https://www.floridatechonline.com/blog/psychology/the-practice-of-applied-psychology-in-crime-prevention/>

<sup>179</sup> <https://www.all-about-psychology.com/the-role-of-psychology-in-law-enforcement.html>

odamlarga va jamiyatga tartib va tinchlikni saqlashga yordam beradi, chunki odamlar nima uchun atrofdagilarga ta'sir qiladigan tanlovlarni amalga oshiradilar. **Kriminologiya bo'yicha** martaba yo'llari turli xil ixtisosliklarni taklif etadi, shu jumladan jinoyatlarning oldini olish, kiber jinoyatlar, terrorizm, balog'atga yetmaganlar adiyasi va huquqni muhofaza qilish sohasidagi ishlar. Jismoniy shaxslar, shuningdek, jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash xizmatlari bilan ishlashni yoki huquqbuzarni rehabilitatsiya qilish va reintegratsiyani tanlashlari mumkin. Ushbu rollarning har biri psixologiyani chuqur tushunishni talab qiladi va sezgir va mos javoblarni talab qiladi.

Milliy Jandarmiya tizimida psixo-kriminologlar tomonidan **quyidagi ijtimoiy-psixologik chora tadbirlar** amalga oshiriladi:

✚ huquqbuzarliklar qanday va nima uchun sodir etilganligi haqidagi ma'lumotlarni o'rganish va to'plash;

✚ huquqbuzarlikning ijtimoiy va individual oqibatlarini ilmiy tahlil qilish va zaruriy ma'lumotlar asosida ilmiy baholash;

✚ jinoyatchilik dinamikasini kamaytirish va huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish orqali qo'llab-quvvatlash metodika, strategiyalarini ishlab chiqish;

✚ huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan maqsadli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda bu boradagi ichki tartib-qoidalarni doimiy takomillashtir.

✚ mamlakatdagi jinoyatchilik dinamikasiga oid ma'lumotlar va statistik hujjatlar bilan ishlash orqali jamiyatdagi ijtimoiy muhitga samarali ta'sir ko'rsatish.<sup>180</sup>

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi 3 ta xorijiy davlat tajribalarida keltirib o'tilgan zamonaviy metodlardan milliy qonunchiligimizda foydalanish o'zining **ijobiy natijasini ko'rsatishi mumkin.**

Bundan tashqari, Respublikamizda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda huquqiy maqomi, vazifa va funksiyalarining doirasi hamda aholimiz bilan doimiy ravishda muloqot qiladigan **profilaktika inspektorlarimiz** zimmlariga yuklatilgan funksional vazifalarini bajarishda, jinoyat omillarini aniqlashda psixologik bilimlardan foydalanishlari va tajribali psixologlarimiz bilan hamkorlikda chora-tadbirlarni amalga oshirishlari sifatli profilaktik ishlar bajarilayotganligini ko'rsatadi.

Mahallalarda jinoyatchilikka qarshi murosasiz muhitni yaratish, eng avvalo, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini barvaqt bartaraf etish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish, ularda qonunga hurmat hamda qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik tuyg'usini singdirish yo'li bilan huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlashda **«Jinoyatga qarshi kurashish haqiqati va adolati»** tizimi asosida har bir sodir etilgan jinoyat shu kunning o'zida keng jamoatchilik o'rtasida muhokama qilinishi yo'lga qo'yildi. Ushbu vazifani mahallalardagi profilaktika inspektorlari doimiy ravishda, sidqidildan amalga oshirib

<sup>180</sup> Code of ethics of the police and the gendarmerie in France // Article R. 434-3 – Nature and scope of the code of ethics

kelmoqdalar. Xususan, profilaktik ishlarni tashkil etishda ayollar, yoshlar va voyaga etmaganlar bilan **ijtimoiy-psixoprofilaktik** chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Zero, yurtimizda yosh avlodga bo'lgan e'tibor har qachongidan ham kuchaygan. Chunonchi, bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida ham tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Prezidentimizning 2021-yil 2-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, "**Xavfsiz ta'lim muassasasi**" tamoyili asosida voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo'yicha manzilli choralarni nazarda tutuvchi muhim qoidalar o'rnatildi. Mamlakatimiz bo'yicha ichki ishlar organlarida voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha jami 2000 ta **inspektor-psixolog** lavozimi joriy etildi va ularning bevosita xizmat o'tash joyi sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablari belgilandi. Inspektor-psixologlar zimmasiga har bir o'quvchi kesimida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixologik muhitni yaxshilash, voyaga yetmaganlar orasida qonunbuzilishlarga murosasiz munosabatda bo'lish hissini shakllantirish, muammoli o'quvchilar bilan ularning yashash joylarida ota-onalari ishtirokida manzilli ishlash vazifasi yuklatildi.<sup>181</sup>

Xususan, mahallada (qishloqda) jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishni bevosita amalga oshirish sohasida: muammoli oilalar va uzoq muddat mobaynida chet elda bo'lib qaytgan shaxslarning elektron ro'yxatini yuritish, ularga huquqiy, tibbiy va psixologik yordam ko'rsatilishini tashkil etish, profilaktik hisob, ma'muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan ijtimoiy moslashtirish ishlarini ularning elektron ijtimoiy-psixologik portretini tuzgan holda yakka tartibdagi ijtimoiy moslashtirish dasturi asosida amalga oshirilishini tashkil etish, psixologik faoliyat xodimlarning ruhiy holatini kuzatish hamda ularning shaxsiy fazilatlarini va jamoadagi munosabatlarini kasbiy burchini samarali bajarishga yo'naltirishda ichki ishlar organlari xodimlari muntazam ravishda vakolatli davlat orgalari, jamoat birlashmalari va fuqarolar bilan amaliy hamkorlik qiladilar.

**O'rganish davomida, biz mualliflar profilaktik ishlarni tashkil etishda ichki ishlar organlarida profilaktika inspektorlari tomonidan shaxslarning ruhiy holatini o'rganish, shaxsga individual yondashish, uning o'ziga xos xarakter xususiyatlarini tahlil qilish, yakka tartibda ishlash, ruhiy holatini mustahkamlash, har qanday ekstremal va nostandart vaziyatlarda o'zini-o'zi boshqara olish kabi noyob psixologik bilimlardan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish mobaynida foydalanishni zarur deb topdik:**

<sup>181</sup> <https://kun.uz/uz/news/2021/04/05/iiv-tizimida-2-000ta-shtatdan-iborat-inspektor-psixolog-lavozimi-joriy-etilyapti-ular-bevosita-maktablarda-xizmat-otaydi>

- huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar bilan o'tkaziladigan profilaktika suhbatlarda;
- g'ayriijtimoiy xulq-atvorni davom ettirib kelayotgan shaxsga rasmiy ogohlantirish berish jarayonida;
- g'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslar, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarning ish (o'qish) joyidagi ish beruvchini (ma'muriyatni), yashash joyidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organini g'ayriijtimoiy xulq-atvorning va sodir etilgan huquqbuzarlikning holatlarini, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar to'g'risida xabardor qilishda;
- shaxslarga nisbatan ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish jarayonida;
- ilgari sudlanganlarga ular jinoiy jazoni o'taganidan so'ng, o'ziga nisbatan sudning jazo tayinlanmagan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan shaxslarni, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytganlarni profilaktik hisobga olishda;
- vakolatli davlat organi mansabdor shaxsini chiqargan qarori asosida majburiy davolanishga yuborishda;
- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar ustidan tarbiyaviy-profilaktik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari majmuidan iborat bo'lgan va nazorat ostidagilarga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan cheklovlarni qo'llashdan iborat bo'lgan ma'muriy nazorat o'rnatishda;
- aholi, ayniqsa, xotin-qizlar, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha fuqarolarning huquqiy madaniyati va faolligini oshirishga yo'naltirilgan tushuntirish ishlarini tashkil etishda;
- xotin-qizlar va voyaga yetmaganlarga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatish ehtimoli mavjud oilalarda profilaktik tushuntirish ishlarini olib borish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashishda;
- odam savdosi qurboniga aylangan xotin-qizlar va voyaga yetmaganlarga ularning ijtimoiy hayotga moslashishlari uchun har tomonlama ko'mak berishda;
- xotin-qizlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida erta nikoh, o'z joniga qasd qilish, jinoyatlar va huquqbuzarliklar holatlarining sabab va shart-sharoitlarini o'rganish, shuningdek, ularga yo'l qo'ymaslik bo'yicha profilaktika choralari, shu jumladan, yakka tartibdagi choralarni ko'rishda;
- fuqarolarning yot g'oyalar, ichkilikbozlik va giyohvandlik ta'siri ostiga tushib qolishlari, oilaviy kelishmovchiliklar shuningdek, yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsiz munosabatda bo'lish holatlarining oldini olishda;
- ichki ishlar organlari hisobida turgan, ayniqsa, muqaddam sudlangan, huquqbuzarliklar sodir etayotgan va yot g'oyalar ta'siriga tushib qolgan shaxslar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirishda;



➤ jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy moslashtirishda.

**Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak**, mamlakatimizdagi keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni "**Xalq manfaatlariga xizmat qilish**" tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi. (

Yangi O'zbekistonni barpo etish kabi ezgu maqsad yo'lida ichki ishlar organlari xodimlari, ayniqsa, xalqqa eng yaqin bo'lgan profilaktika inspektorlari oldida muhim vazifalar turibdi. Bu vazifalarni samarali bajarish esa ulardan kasbiy mahorat, boy tajribadan tashqari chuqur ijtimoiy, siyosiy, psixologik, huquqiy bilimlarni ham talab etadi. Agar xalqimizning dard-u tashvishi bilan yashaydigan, yuksak bilimli, kreativ fikrlovchi, vataniga va xalqiga sadoqat bilan xizmat qiladigan tom ma'nodagi ichki ishlar organi xodimlarini shakllantirish yo'lidagi istiqbolli islohotlarni bardavom qilsak bu o'zining samarasini albatta ko'rsatadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET RESURS MANBALARI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5005-sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-sonli Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-sonli qarori.

4. Code of ethics of the police and the gendarmerie in France // Article R. 434-3 - Nature and scope of the code of ethics.

5. G'oziyev E., Psixologiya, T., 2003.

6. John A. Schinka & Wayne F. Velicer, «Volume Preface» in Weiner (ed.), Handbook of Psychology (2003), Volume 2: Research Methods in Psychology.

7. Балин В. Д., Гайда В. К., Ганзен В. А. Практикум по общей и экспериментальной психологии. — Л., ЛГУ, 1987. — 256 с.

**8.** Ярошевский, М. Г. Психология в XX столетии. — Москва: Политиздат, 1974. — 447 с. — (Теоретические проблемы развития психологической науки). — 42 000 экз.